



INFLUENCE OF WESTERN LITERATURE ON AFGHAN LITERATURE

Afzuna Nazarova

Doctoral student, Tashkent State University of Oriental Studies
(Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: Afghanistan's rich cultural heritage has been shaped by various influences over the centuries, including that of the Western world. In recent decades, the influence of Western literature on Afghan literature has become increasingly evident, as Afghan writers have also been inspired by Western literary traditions to explore new themes and styles in their work. In addition, the influence of Western literature on Afghan literature opened up new opportunities for cultural and intellectual exchange. Bridges are built between different literary traditions and perspectives by translating Afghan literary works and bringing them to Western audiences, or, conversely, translating Western literary works for Afghan audiences. The influence of Western literature on Afghan literature has also led to progressive changes in the country's literature. The contribution of the enlightened writer Mahmud Tarzi in this regard is incomparable. That is why the Afghan student became closely acquainted with the works of such writers as Jules Verne, Xavier de Montepi, Leo Tolstoy, Victor Hugo, and, inspired by them, wrote prose and poetic works with a new theme and a new direction.

Key words: Western literature, Afghan literature, Mahmud Tarzi, Turkish literature, translated works, Flora, literary influence, Spudjmay Zaryab, realism, humanism.

AFG'ON ADABIYOTIGA G'ARB ADABIYOTINING TA'SIRI

Afzuna Nazarova

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
(Toshkent, Ozbekiston)**

Аннотация: Afg'onistonning boy madaniy merosi asrlar davomida turli xil ta'sirlar, jumladan, G'arb dunyosi ta'sirida ham shakllangan. So'nggi o'n yilliklarda G'arb adabiyotining afg'on adabiyotiga ta'siri tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki afg'on yozuvchilari o'z ijodida yangi mavzu va uslublarni o'rganish uchun G'arb adabiy an'analaridan ham ilhomlangan. Qolaversa, G'arb adabiyotining afg'on adabiyotiga ta'siri ham madaniy va fikriy almashinuvlar uchun yangi yo'llarni ochdi. Afg'on adabiy asarlarini tarjima qilish va G'arb auditoriyasiga yetkazish yoki aksincha ga'arb adabiy asarlarini tarjima qilib afg'on auditoriyasiga yetkazish orqali turli adabiy an'analar va qarashlar o'rtasida ko'priklar o'rnatilmoqda. Afg'on adabiyotiga ham g'arb adabiyotining ta'siri mamlakat adabiyotida ilg'or qadamlar bilan o'zgarishlarga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Ushbu jabhada ma'rifatparvar adib Mahmud Tarziyning hissasi beqiyosdir. Aynan u sabab afg'on o'quvchisi Jyul Vern, Xavier de Montepi, Lev Tolstoy, Viktor Gyugo kabi adiblarning asarlari bilan yaqindan tanishdi va ulardan ilhomlangan holda yangicha mavzu, yangicha yo'nalishdagi nasriy va nazmiy asarlar yozishdi.

Калит со'злар: G'arb adabiyoti, Afg'on adabiyoti, Mahmud Tarziy, turk adabiyoti, tarjima asarlar, "Flora", adabiy ta'sir, Spujmay Zaryob, realizm, gumanizm.

Аннотация: Богатое культурное наследие Афганистана формировалось под различными влияниями на протяжении веков, включая влияние западного мира. В последние десятилетия влияние западной литературы на афганскую литературу становится все более очевидным, поскольку афганские писатели также вдохновлялись западными литературными традициями на исследование

новых тем и стилей в своем творчестве. Кроме того, влияние западной литературы на афганскую литературу открыло новые возможности для культурного и интеллектуального обмена. Между различными литературными традициями и взглядами наводятся мосты путем перевода афганских литературных произведений и доведения их до западной аудитории или, наоборот, перевода западных литературных произведений для афганской аудитории. Влияние западной литературы на афганскую литературу также привело к прогрессивным изменениям в литературе страны. Вклад просвещенного писателя Махмуда Тарзи в этом отношении бесподобен. Именно поэтому афганский студент близко познакомился с произведениями таких писателей, как Жюль Верн, Ксавье де Монтепи, Лев Толстой, Виктор Гюго, и, вдохновившись ими, написал прозаические и поэтические произведения с новой темой и новым направлением.

Ключевые слова: Западная литература, афганская литература, Махмуд Тарзи, турецкая литература, переводные произведения, «Флора», литературное влияние, Спуджмай Зарёб, реализм, гуманизм.

Kirish. G'arb adabiyotining afg'on adabiyotiga ta'siri adabiyotshunoslar va tanqidchilar tomonidan keng muhokama qilingan va muhokama qilinayotgan mavzudir. Afg'oniston uzoq va boy adabiy tarixga ega bo'lgan mamlakat sifatida yillar davomida turli yo'llar bilan G'arb adabiyotidan ta'sirlangan holda rivojlandi. G'arb yozuvchi va shoirlarining afg'on nasri va she'riyatiga ta'siri afg'on adabiyotining jo'shqinligi va rang-barangligiga xizmat qildi, poetik an'anani dunyoning turli mamlakatlaridagi yangi g'oyalar, uslublar va istiqbollar bilan boyitdi.

Asosiy qism. Eng avvalo afg'on adabiyotining g'arb adabiyoti bilan tanishuvini o'rganadigan bo'lsak, 1890-yillarda Mahmud Tarziyning Turkiyaga qilgan safarini yodga olishimiz joiz. Ushbu safar "afg'on jurnalistikasining otasi" hisoblanmish Mahmud Tarziyga Turkiya orqali g'arb adabiyoti bilan tanishishiga sabab bo'ldi. Ko'hna Istanbul mag'rib va mashriq ko'prigi sifatida o'zaro adabiy aloqalar

almashinuvi, svilizatsiyalar to'qnashuvi va taraqqiyotiga, hamda g'arb adabiyoti bilan yaqindan tanishishga asos bo'ldi. Shu jihatdan Turkiya adibga dunyoqarashining shakllanishiga, tobora rivojlanib borayotgan mag'ribning adabiy sohadagi yangiliklaridan boxabar bo'lib, buni afg'on adabiyotiga tatbiq qilishiga tamal toshini qo'ydi. Adib ona tili pushtu tilidan tashqari yana boshqa bir necha tillarni, xususan, fors, arab, turk, urdu va fransuz tillarini ham mukammal bilari va bu tillarda yozilgan asl asarlarni o'qib, o'zini rivojlantirib borardi. U g'arb adabiyoti namunalarining turkcha tarjimalarini o'qib borib, ulardagi ijtimoiy hayot, san'at va adabiyotga oid yangi fikr va taraqqiyot g'oyalarini o'zida aks ettirgan asarlardan ta'sirlanar, ulardan ibratlilarini o'zi uchun dasturulamali qilib olishga harakat qilardi.

Mahmud Tarziy 1895-yildan romanlar tarjima qila boshladi. Fransuz adabiyotidan turk tiliga Anvar Zakiy tomonidan tarjima qilingan "Flora" asari uning roman tarjimasidagi ilk tajribasi sifatida keltiriladi [3, 14b]. Shundan so'ng adibning qator tarjimalari dunyo yuzini ko'rdi. Ular qatoriga fransuz yozuvchisi Xavier de Montepinning "Parij falokatlari" (turk tiliga Ahmad Mithat tarjimasini) va mashhur yozuvchi Jyul Vernning "Dunyo bo'ylab sakson kunlik sayohat", "Sirli orol", "Dengiz ostida sayohat" va "Havo sharida sayohat", "Rus-yapon urushi" kabi mashhur asarlarini kiritish mumkin. Bu asarlar dariy tiliga muvaffaqiyatli tarjima qilingan bo'lib Afg'oniston va mintaqa davlatlarining o'sha davrdagi madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

G'arb adabiyotining afg'on adabiyotiga ta'sirini tarjima qilingan asarlarning tobora ommalashib borayotganida ham ko'rish mumkin. Afg'on o'quvchilari Viktor Gyugo, Jyul Vern, Lev Tolstoy kabi G'arb adabiy klassikalariga ko'proq duchor bo'lishlari sababli, ular bu asarlarning elementlarini o'z asarlariga kiritishni boshlaydilar. Bu madaniyatlararo almashinuv nafaqat afg'on adabiyotini boyitib keldi, balki turli adabiy an'analarni chuqurroq tushunish va qadrlashni ham ta'minlaydi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, G'arb adabiyotining afg'on adabiyotiga ta'siri har doim ham ijobiy bo'lmasligi mumkin. Global adabiy bozorda G'arb adabiyotining ustunligi afg'on yozuvchilariga o'z asarlari uchun e'tirof va o'z o'rniga ega bo'lishni qiyinlashtirishi mumkin. Ammo shunga qaramay hozirgi kunda afg'on romanchiligi

va hikoyachili ham anchayin ildamlagan va jahon adabiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lmoqda.

Mahmud Tarziy 1896-yili Turkiyada Sayyid Jamoliddin Afg'oniy bilan uchrashganidan uning dunyo haqidagi tushunchasini shakllanishida muhim o'rin tutgan asar – faylasuf Jon Uilyam Dreperning “Din va fan o'rtasidagi urush tarixi” nomli asari bilan tanishgan edi. Ushbu kitob Ahmad Mithat tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, 1895-yil nashr etilgan edi [2, 350b]. Umuman olganda adibning Turk diyoridagi safari bu mamlakatning svilizatsiyalar ko'prigi o'laroq Mahmud Tarziy hayotida, dunyoqarashining shakllanishida katta rol o'ynadi. Adib g'arb adabiyoti namunalarining turkcha tarjimalarini o'qib borib, ulardagi ijtimoiy hayot, san'at va adabiyotga oid yangi fikr va taraqqiyot g'oyalarini o'zida aks ettirgan asarlardan ta'sirlanar, ulardan ibratlilarini o'zi uchun dasturulamal qilib olishga harakat qilardi.

Natijalar va muhokama. Mag'ribning afg'on adabiyotiga ta'sirlarini bir nechta aspektlarda ko'rib chiqish mumkin. Dastlab afg'on adabiyotidagi mavzular ko'lamiga bo'lgan ta'sirni e'tiborga olishimiz joiz. Ko'pgina afg'on yozuvchilari G'arb adabiyotida azaldan markaziy o'rinni egallagan individuallik, insoniy munosabatlarning murakkabliklari va gumanizm kabi mavzularni o'rganib qalamga olishgan. afg'on adabiyotiga bo'lgan bu ta'sirni biz Mahmud Tarziyning vatanga qaytganidan keyin gazeta va jurnallarda e'lon qilingan maqolalari va she'rlarida ko'rishimiz mumkin. Unda adib an'anaviy gul va bulbulni sevgisini kuylab o'tiravermasdan ijtimoiy hayotdagi boshqa muammolarga ham e'tibor qaratishni, mamlakat rivojiga turtki beruvchi masalalar haqida yozishga undagan. G'arb shoirlari ko'pincha o'z ijodlarida ijtimoiy adolat va inson huquqlaridan tortib ijtimoiy, siyosiy va ekologik muammolarga shuningdek, shaxsiy kechinma va hissiyotlargacha bo'lgan turli mavzu va g'oyalarga murojaat qilishadi. Jamiyatning dolzarb muammolariga e'tibor qaratilishi afg'on shoirlarini o'z ijodlarida shu kabi mavzularni muhokama qilishga undab, afg'on jamiyati oldida turgan muammolar va imkoniyatlar haqida kengroq fikr almashishga hissa qo'shdi. Afg'on shoirlarining ushbu mavzulardan ilhom olib, ularni o'z asarlariga kiritishlari, afg'on adabiyotida o'rganilgan mavzular doirasini kengaytirishlariga ko'mak berdi.

G'arb adabiyotida nasrning sharq adabiyotiga nisbatan rivojlanganligi va ularni realistik tasvirlash uslubi Mahmud Tarziy e'tiborini tortadi. U bu borada quyidagilarni qayd etadi: "Masalan, sharq hikoyachisining oshiqni tasvirlashda uning ahvoli, go'zalligi tasviri kamida bir varaqni to'ldiradi. Ammo g'arb hikoyachisi o'z mahbubini tasvirlar ekan, go'yo uning ro'parasida musavvir o'tirib, uning sur'atini realistik uslubda, o'quvchining o'z uyi, ko'rgan o'rni, ko'rgan joyi, o'z ko'ziga ko'ra chizgandek, odamning yuzini, sochini va hatto voqealarni qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlaydi" [2, 349b].

Afg'on adabiyotiga bunday tasvir uslubini aks ettirishda mavzular, yozish uslublari, texnikasi va hikoya qilish usullari kabi shakllarda namoyon bo'ldi. G'arb adabiyotining afg'on adabiyotiga ta'sirining eng muhim usullaridan biri bu yangi mavzu va g'oyalarni kiritilishi bo'ldi. G'arb adabiyoti, individualizm, erkinlik va gumanizm bilan birga realizmga qaratilgan bo'lib, afg'on yozuvchilarini ham o'z asarlarida shunday mavzularga murojaat qilishga undadi.

G'arb adabiyotidagi umumiy elementlar bo'lgan hikoyalarda ong oqimi, magik va absurdlikning mavjudligi afg'on yozuvchilari tomonidan yanada murakkab va tendensiyali hikoyalar yozishni oshishiga asos bo'ldi. Misol uchun, afg'on adibi Spujmay Zaryob Fransiyada adabiyotshunoslik yo'nalishida o'qib yurgan kezlarda g'arb va Amerika adabiyoti bilan yaqindan tanishdi va bu oshnolik keyinchalik uning asarlarida aks etdi. Xususan, dastlab g'arbda paydo bo'lgan modernizmning dariy hikoyanavisligida ham aks etishi, dariy adabiyotshunosligida mazmun va g'oyani teranroq ochib berishi, keng qamrovlilik, inson omilining ustunligi va his-tuyg'ularni ochiq ifodalanishi bilan ommani jalb qila oldi. Uning "Suv chelaklar va tariq xaltachalar", "Qobil dashti", "Husnixat muallimi" kabi hikoyalarida bu kabi elementlarni uchratishimiz mumkin.

XIX asrda G'arbda ommalashgan roman janri XX asrda afg'on yozuvchilari orasida ham keng tarqala boshladi. Ayniqsa dariy zabon nasrda realistik unsurlar XX asrning o'ttizinchi yillaridan namoyon bo'la boshlagan edi. "Bu unsurlar avvallari mazkur davrda yozilgan qissalarda ifodalangan xalq turmushi manzaralari shaklida ko'ringan bo'lsa, asta-sekin bu tamoyil jamiyatdagi turli tabaqalar namoyondalari

orasidagi munosabatlar tasvirida ham namoyon bo'la boshladi. Ushbu omil 60-70 yillarga kelib dariyzabon adabiyotda realistik yo'nalishning shakllanishiga zamin yaratdi" [1, 129b]. Afg'on romannavislari an'anaviy afg'on hikoyachiligi va g'arb hikoya usullaridan foydalangan holda omuxtalashgan, murakkab va nozik hikoyalarni yaratishdi.

Xulosa. G'arb va afg'on adabiy ta'sirlarining uyg'unlashuvi afg'on adabiyotida uyg'onish jarayonini keltirib chiqardi, bu esa Afg'onistonda ham, jahon sahnasida ham o'quvchilarda aks-sado beradigan innovatsion va ilg'or asarlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bundan tashqari, G'arb adabiy ta'sirlarining integratsiyalashuvi afg'on adabiyotiga zamonaviylik va tajriba hissini olib keldi. Afg'on yozuvchilari noan'anaviy hikoya tuzilmalarini o'zlashtirmoqda, taqiqlangan mavzularni o'rganmoqda va an'anaviy adabiy konventsionalarga ilgari eshitilmagan usullar bilan e'tiroz bildirmoqda. Bu dinamik va rivojlanayotgan adabiy manzara afg'on jamiyatining o'zgaruvchan voqeligini aks ettiradi, chunki yozuvchilar o'z asarlarida o'zlik, siyosat va ijtimoiy o'zgarishlar bilan kurashadi. G'arb va Afg'on adabiy ta'sirlarining uyg'unlashuvi oxir-oqibat afg'on adabiyotini boyitib, jonli va rang-barang adabiy sahnaga hissa qo'shdi.

ADABIYOTLAR.

1. R.Inomxo'jayev. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti (XIX asr oxiri-XX asr). –Toshkent, 2018.
2. R.Imamhocaev, O.Mert. Afgan aydini ve yazari Mahmut Tarzi ve Osmanli-Türkie// Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi Sayı 20 – Erzurum, 2002.
3. مقالات محمود طرزی، روان فرهادی. ۱۳۵۵.